



## NIZOLARNI HAL ETISHDA MEDIATSIYA INSTITUTI

***Pardaqulov Bunyod Ibrohim o'g'li***

*Toshkent davlat yuridik universiteti*

*Jinoiy odil sudlov fakulteti*

*3-bosqich talabasi talabasi*

[\*bunyodbekibrohimovich66@gmail.com\*](mailto:bunyodbekibrohimovich66@gmail.com)

*+998951117029*

***Annotatsiya:*** Maqolada mediatsiya instituti nizolarni hal etishning muqobil huquqiy mexanizmi sifatida chuqur tahlil qilinadi. Unda mediatsiyaning mazmuni, asosiy prinsiplari — maxfiylik, ixtiyoriylik, taraflarning tengligi hamda mediatorning xolisligi yoritilgan bo'lib mediatsiya sud jarayoniga nisbatan tezkor va kam xarajatli va taraflar uchun qulay vosita ekani asoslarda bevosita ko'rsatib beriladi. O'zbekiston qonunchiligiga mediatsiya institutining kiritilishi, mediatorlarni tayyorlash tizimi va mediativ kelishuvning huquqiy kuchi bo'yicha amaliy mexanizmlarni tahlil qilinadi. Shuningdek Singapur tajribasi misolida mediatsiya institutining axborotlashtirish mediatorlar markazlashgan tizimi o'rganilgan. O'zbekistonda mediatsiyani rivojlantirish sudlar yuklamasini kamaytirish va fuqarolarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirish, mediatorlar uchun amaliy tajriba maydonlarini kengaytirish orqali jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Mediatsiyani ommalashtirish uchun targ'ibot mediatorlarning kasbiy malakasini oshirish va fuqarolarga bepul yuridik maslahat markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish zarurligi keltirib o'tilgan.

***Kalit so'zlar:*** Integratsiya, stereotip, nizolarni muqobil hal etish, mediator, Singapur mediatsiyasi, Singapur mediatsiya markazi.

### **Kirish**

Hozirgi davrda jamiyatimizda ijtimoiy munosabatlarning yetarli darajada ko'payishi va murakkablashuvi tufayli mediatsiya instituti muhim ahamiyat kasb



etmoqda. Fuqarolik, iqtisodiy, mehnat, va eng asosiysi oilaviy huquqiy munosabatlar kengayishi sababli, sudlarda yuklamalarni ko'payganligi nizolarni sudning yordamisiz va muqobil variantlar orqali hal etilishiga ehtiyoj ortib bormoqda. Ushbu muqobil mexanizmlardan biri va hozirgi davrda eng ommalashgan mediatsiya institut hisoblanadi. Har bir inson hech bo'lmaganda bir marotaba mediatsiya tushunchasiga duch kelgan. Ushbu institutni o'z qonunchiligiga integratsiya qilmagan davlatlar ham sanoqli bo'lib kelmoqda. Mediatsiya tushunchasiga ta'rifni deyarli barcha tarmoqlardan topsa bo'ladi. Mediatsiya bu kelib chiqqan nizoni taraflar o'zaro maqbul qarorga erishishi uchun ularning ixtiyoriy roziligi asosida mediator ko'magida hal qilish usuli hisoblanadi [1]. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek sudgacha bo'lgan nizolarni mediativ ko'rinishda hal qilishda juda ko'p imkoniyatlar ochadi. Hozirda mediativ kelishuv ixtiyoriy hisoblanadi. Ba'zi davlatlarda mediatsiyani majburiy hisoblanadi ya'ni har bir fuqaro sudga murojaat qilishdan oldin albatta mediatsiya orqali nizosini hal qilib ko'rish kerak bo'ladi agarda mediator ushbu nizoni hal qilishni imkoniyati yo'q deb hisoblaydigan bo'lsa bemalol sudga murojaat qilishini ko'rsatib o'tadi. Mediatsiya instituti haqida ko'plab muzokaralar qilsa bo'ladi eng avvalo ushbu institutning tarixini o'rganib olsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

**Mediatsiya (lotincha “mediare”)** mediatorlik qilish. **Mediatsiya** – faqat taraflar o'z nizolarini (kelishmovchiligini) taraflar uchun maksimal va ikki taraflama foydali hal qilishlaridan manfaatdor bo'lgan uchinchi /xolis/ taraf ishtirokida nizolarni muqobil hal qilish turlaridan biri hisoblanadi. Mediatsiya taraflarning o'zaro maqbul qarorga erishish maqsadida ixtiyoriy roziligi asosida mediator yordamida yuzaga kelgan nizoni hal qilish usuli [2].

Mediatsiya tushunchasi, lotincha “*mediare*” so'zidan olingan bo'lib “*vositachilik qilish*” degan ma'noni angalatadi. Shu sababli xalqaro muamalarda mediatsiya “*vositachilik*”, “*yarashish maqsadida aralashuv*” ma'nolarida qo'llaniladi va yuridik adabiyotlarda mediatsiya va vositachilik tushunchalari bir xil ma'no kasb etadi. Qonunni rivojlantirish tarixida **Vavilon, Qadimiy Gretsiya va**



**Qadimiy Rimda** mediatsiyani qo'llash qayd etilgan. Rim huquqida **Yustinian** kodeksidan boshlab (miloddan avvalgi VI asr) bahs-munozaralarni hal qilish uchun vositachilik tan olingan. Mediatsiya texnologiyasi asosan savdoda qo'llanilgan. Rimliklar bahs-munozaralarni hal qiluvchi mutaxassislarni **“medium”**– **“vositachi”** so'zi bilan ifodalashgan. Zamonaviy tushunchalarda mediatsiya XX asrning ikkinchi yarmida **AQSH, Avstraliya va Buyuk Britaniyada** rivojlana boshlagan. Yevropada mediatorlar oilaviy munozaralarni hal qilishga jalb qilingan [3]. Darhaqiqat mediator o'rtada taraflarning fikrlarini vajlarini eshitadigan vositachi hisoblanadi ikki tarafning har birini fikrlarini eshitib so'ngra masalani yechish uchun xizmat qiladi va yarashish maqsadida aralashuvga kirishadi. Har bir ko'p millatli va fuqarolari ko'p davlatlarda nizolar ham ko'p bo'lishini inobatga olsak mediatsiyaga bo'lgan ehtiyoj ham ko'payaveradi ushbu institut orqali sudlardagi ishlarni kamaytirish fuqarolarni oshiqcha vaqtini behuda sariflamaslik reja qilingan. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining tegishli moddalariga ko'ra 1 ta ish 1 yoki 2 oyda hal bo'ladi mediatsiya institute orqali ushbu muddatni yetarli darajaga kamaytirish va vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo'linadi.

Hozirgi davrda mediatsiya institute barcha huquqiy munosabatlarni o'z ichiga olib kelmoda qadimda ushbu institut bunday nomlanmagan bo'lsa ham nizolarni hal qilishda shunday e'tibor qaratilgan. Mediatsiya institutini mukmmal rivojlantirish uchun va professional mediator bo'lish uchun qanday bosqichlardan o'tish kerak degan savol tug'iladi. Mediator o'zi kim degan savol tug'iladi. **Mediator** – mediatsiyani amalga oshirish uchun taraflar tomonidan jalb etiladigan shaxs hisoblanadi. Taraflar mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish natijalaridan kelib chiqadigan nizoni yoxud majburiyatlarni bajarish shartlari va muddatlari xususida o'zaro maqbul qarorga erishgan taqdirda, notarius taraflar o'rtasida tuzilgan mediativ kelishuvni tasdiqlaydi [4]. Mediator o'z faoliyatini *professional* va *noprofessional* asosida amalga oshiradi va shuni ham ta'kidlab o'tish joizki professional mediator faoliyatini maxsus o'quv kursida o'tgan mediator reysteriga kiritilgan shaxs amalga oshirishi mumkin. Ta'lim, tasdiqlangan Mediatorlarni tayyorlash dasturi bo'yicha



amalga oshiriladi. Uning maqsadi – mediatsiyani qo'llashni o'rgatish, muzokaralar olib borish texnologiyasi, stress holati va kelishmovchiliklarni boshqarish haqida tayanch bilimlar berish, nizolarni hal qilish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish. O'quv kurslarini Adliya vazirligi huzuridagi Yuristlar malakasini oshirish markazi tashkil etadi. Ularda ta'lim olish kunduzgi shaklda, shartnoma asosida, 1 oydan kam bo'lmagan muddat davomida amalga oshiriladi [5].

Ushbu kurslarni tugatgandan so'ng professional mediator bo'lgan shaxslarga amaliyot joriy etilayaptimi? Afsuski O'zbekiston Respublikasida mediatorlik kursini muvafaqiyatli tamomlagan shaxslar ya'ni mediatorlar yetarli darajada amaliyot qila olmayapti ushbu institut bizda yangi va to'liqligicha ishonchni qozonolmaganligi tufayli mediatorlarga ish kam va ushbu sohasi ikkinchi darajali ya'ni qo'shimcha faoliyatli kasb bo'lib qolmoda. Bilamiz 2018.03.07-yil **“Mediatsiya to'g'risida”**gi qonun qabul qilingan. Ushbu institut qonun darajasiga chiqqandan so'ng mediatsiya instituti rivojlanadi va mediatorlarga talab oshadi, sudlarda ish yuklamasi yetarli darajada kamayadi degan xulosa kelinilgan. Ushbu qonun O'zbekistonda yetarli darajada rivojlanmayotganini Adliya vazirligi ro'yxatga olgan profissioanal mediatorlar shunday tasdiqlaydi. Ba'zi insonlardan so'rovnoma orqali savol qo'yilganda ularning javobi shunday bo'lgan. Profissional mediator bo'lib Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tganiga 4 yil bo'ldi ammo shu vaqtgacha hech kim mediator kerak deb bir og'iz ham aytmaganligini, o'zi uchun, amaliyot uchun tekinga mediator bo'lish niyati ham borligini ta'kidlagan ammo hech kimda mediatorga nisbatan ehtiyoj paydo bo'lmadi deb javob berganlar. Ushbu vaziyatda nimaga mediatsiya instituti rivojlanmayapti degan savol ko'pchilikni qiynaydi yuqorida aytib o'tganimizdek fuqarolarni huquqiy ong va huquqiy madaniyatlari ushbu institutni rivojlantirishga yetarli hisoblanmaydi. Sababi mediator hech qanday nizoni hal qilib bera olmaydi degan fikr fuqarolarda stereotip ko'rinishida hosil bo'lib qolgan. Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlangan sari mediatsiya institutiga O'zbekistonda ham ehtiyoj va talab ortadi.



Zamonaviy dunyoda ya'ni XXI asrda axborot kommunikatsiya texnologiyalarni tez sur'atda kengayib rivojlanib bormoqda. Axborot kommunikatsiyalari kirib bormagan joy deyarli yo'q desak ham bo'ladi. Axborot kommunikatsiyalari mediatsiyaga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi nizolarni nafaqat yuzma yuz ko'rishib hal qilish uni onlayn hamda kamchiqim qilib hal qilsa bo'lishini hozirda ko'plab mamlakatlar isbotlab berayapti. Mediatsiya sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar va ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqot olib borayotgan talabalar uchun onlayn mediatsiya jarayonining imkoniyatlarini mediatsiyaning kelgusidagi istiqbolli rivojlanishlari muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, mediatsiya jarayonini masofaviy shaklda tashkil etish mumkinmi? O'zbekiston Respublikasining **"Mediatsiya to'g'risida"**gi **qonunining 5-moddasida** mediatsiya jarayoni maxfiylik, ixtiyoriylik, taraflarning hamkorligi va teng huquqliligi, shuningdek, mediatorning mustaqilligi hamda xolisligi prinsiplari asosida amalga oshirilishi belgilangan. Ixtiyoriylik va taraflarning hamkorligi prinsiplari zamonaviy texnologiyalarni mediatsiya jarayoniga integratsiya qilish imkoniyatini yaratadi. Shu sababli, mediatsiya taraflari o'zaro kelishib, muzokaralarni Zoomplatformasi yoki Telegramvideo aloqaorqali olib borishlari mumkin. Mediatsiyaning ixtiyoriylik prinsipi ushbu kelishuv asosida shakllanadi va taraflarning tanloviga mos kelishi lozim. Agar mediator taraflarning ushbu kelishuvini qo'llab-quvvatlamasa yoki masofaviy mediatsiya jarayonini o'tkazishdan bosh tortsa, bu ixtiyoriylik prinsipining buzilishiga sabab bo'lishi mumkin. Mediatsiya tizimi zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyalashgani sari ushbu imkoniyatlarning huquqiy mustahkamlanishi zarurligi oydinlashmoqda. Shu o'rinda mediatsiyada zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning ijobiy va salbiy taraflari hamda ushbu sohada texnologiyalar qo'llanilgandan keyin kutilayotgan natijalarni O'zbekiston siymosida ko'rib chiqsak. Ijobiy taraflari: tezkorlik–taraflar masofadan turib mediatsiya jarayonida ishtirok etishi mumkin, bu esa vaqtni tejaydi. Qulaylik–Mediatorva taraflar istalgan joydan mediatsiya jarayonini olib borishlari mumkin. Xarajatlarni kamaytirish–sayohat va boshqa tashkiliy xarajatlar yo'q bo'lganiuchun mediatsiya



arzonroq bo'ladi. Maxfiylik–Onlayn platformalar orqali mediatsiya jarayoni maxfiyligini ta'minlash mumkin. Salbiy taraflari texnik muammolar–internet sifati yoki platforma ishlashidagi nosozliklar mediatsiya jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Hujjatlarning huquqiy kuchi–Elektron kelishuvlarning sud tomonidan tan olinishi uchun maxsus huquqiy normalartalab etiladi. Shaxsiy muloqot yetishmovchiligi–Onlayn mediatsiya yuzma-yuz uchrashuvga nisbatan hissiy jihatdan kamroq ta'sirchan bo'lishi mumkin. [6].

Mediatsiya instituti deyarli barcha sohalarni qamrab oladi shu jumladan fuqarolik huquqiy munosabatlarni ham. Mediatsiya instituti fuqarolik qonunchiligida eng keraklisi hisoblanadi. Sababi O'zbekiston Respublikasida fuqarolik ishlarini ish yuklmasani judayam ko'p. Ish yuklamasi qancha ko'p bo'lsa sudlar qonuniy qaror qabul qilishga shuncha qiynalishadi. Shu sababli ham ushbu mediatsiya institutini rivojlantirishimiz va amalda qo'llash chora tadbirlarini ko'rishimiz zarur hisoblanadi. Mediatsiya institutini nafaqat sudgacha balki sud vaqtida ham amalga oshirsa bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining tegishli moddalariga ko'ra mediativ kelishuvga erishish sud protsessiga ko'ra ham amalga oshiriladi sud maslahatxonaga kirishdan oldin taraflar mediativ kelishuvga erishi haqida aytib o'tganidan so'ng amalga oshadi ammo sud maslahatxonaga kirgan keyin va sud qarori o'qib eshittirilganidan keyin mediativ kelishuv qilib bo'lmaydi.

Mediatsiya tartib-taomili taraflarning ixtiyoriy roziligi bilan boshlanadi va suddan tashqari, sud jarayonida (sud alohida xonaga kirguniga qadar) hamda sud hujjatlarini ijro etish bosqichida qo'llanilishi mumkin. Jarayonni boshlash uchun taraflar dastlab nizoni mediatsiya orqali hal qilishga kelishadilar (mediatsiyani qo'llash to'g'risidagi kelishuv). So'ngra, mediatorni tanlab, mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish to'g'risida yozma kelishuv tuzadilar. Ushbu kelishuvda taraflar, nizo predmeti, mediator, jarayon tartibi, muddati va boshqa shartlar belgilanadi Mediator professional (reyestrqa kiritilgan) yoki noprofessional bo'lishi mumkin [7]. Mediatsiya jarayoni kelishuv tuzilgan kundan boshlanadi va odatda 30 kungacha davom etadi (zarurat tug'ilganda yana 30 kunga uzaytirilishi mumkin), ijro



bosqichida esa bu muddat 15 kunni tashkil etadi. FPKga ko'ra, mediatsiya kelishuvi tuzilganda sud ish yuritishni to'xtatadi va keyinchalik arizani ko'rmasdan qoldiradi [8]. Agar taraflar mediativ kelishuv asosida kelishuv bitimi tuzsa va sud uni tasdiqlasa, ish yuritish tugatiladi. Mediativ kelishuv taraflar uchun majburiy bo'lib, ixtiyoriy ijro etilishi lozim. Agar kelishuv ixtiyoriy ijro etilmasa, taraflar o'z huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qilishga haqli bo'ladi [9]. Aynan mediativ kelishuvning ixtiyoriy ijrosi va sud tasdiqlagan kelishuv bitimining majburiy ijrosi o'rtasidagi farq amaliyotda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Chunki faqat mediativ kelishuv tuzilib, u ixtiyoriy bajarilmagan taqdirda, taraflar nizoni yakuniy hal qilish uchun yana sudga murojaat qilishga majbur bo'ladilar. Bu esa mediatsiyaning vaqt va resurslarni tejash kabi asosiy afzalliklarini sezilarli darajada kamaytiradi. Shu bois, mediativ kelishuvlarning ijro mexanizmlarini kuchaytirish yoki ularni sud tomonidan kelishuv bitimi sifatida tasdiqlash tartibini soddalashtirish va rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi [10].

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek Mediatsiya instituti O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ham o'z o'rnini topib kelmoqda. Bunga misol 2018-yil qabul qilingan mediatsiya to'g'risidagi qonun bo'lib ushbu qonun 4 ta bob va 34 ta moddadan iborat hisoblanadi. Ushbu qonun orqali mediatsiya instituti nazoratga olinadi. Ushbu qonunning prinsplariga to'xtalib o'tsak, Mediatsiya 4 ta tamoyilga asoslanadi bular;

- Maxfiylik
- Ixtiyoriylik
- Taraflarning hamkorligi va teng huquqliligi
- Mediatorning mustaqilligi va xolisligi

Ushbu tamoyillar mediatsiya institutining asosiy tayanch vazifasini bajaruvchilari hisoblanadi ushbu tamoyillarni buzish mumkin noqununiy bo'lib ushbu vaziyatda mediatorlar ushbu prinsiplarni buzgan taqdir javobgarlik qo'llanilishiga olib keladi.



Maxfiylik prinsipiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak Mediatsiya ishtirokchilari mediatsiya jarayonida o'zlariga ma'lum bo'lib qolgan ma'lumotlarni ularni taqdim etgan mediatsiya tarafining, uning huquqiy vorisining yoki vakilining yozma roziligisiz oshkor qilishga haqli emas. Yani hech qaysi ishtirokchi va mediator shaxsiy ma'lumotlarni va jarayonni oshkor qilishligi mumkin emas hisoblanadi.

Ixtiyoriylik prinsipi Mediatsiya taraflarning mediatsiyani qo'llash to'g'risidagi kelishuvda ifodalangan o'zaro ixtiyoriy xohish-istagi bo'lgan taqdirda qo'llaniladi. Mediatsiya taraflari mediatsiyani qo'llashdan uning istalgan bosqichida voz kechishga haqli. Taraflar o'zaro maqbul kelishuvni muhokama qilish uchun masalalarni tanlashda erkindir. Ya'ni ushbu institut ixtiyoriy hisoblanadi fuqaro mediatsiyadan hohlasa foydalanadi yoki foydalanmaydi. Lekin shu joyida savol tug'iladi Fuqarolik protsessual kodeksining 122-moddasiga ko'ra arizani ko'rmasdan qoldirish asoslari bor ushbu 10<sup>1</sup>-bandda da'vogar nizoni javobgar bilan mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish orqali hal qilish tartibiga rioya etmagan bo'lsa ushbu vaziyatda sud arizasini ko'rmasdan qoldiradimi. Bu yerda mediatsiya to'g'risidagi qonunning ixtiyorilik prinsipi Fuqarolik protsessual kodeksiga zid bo'lib qolmoqda.

Taraflarning hamkorligi va teng huquqliligi prinsipi Mediatsiya taraflari mediatorni, mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish tartibini, mediatsiya tartib-taomilidagi o'z nuqtai nazarini, bu nuqtai nazarni himoya qilish usullari va vositalarini tanlashda, axborot olishda, mediativ kelishuv shartlarining o'zaro maqbulligini baholashda teng huquqlardan foydalanadi hamda ularning zimmasida teng majburiyatlar bo'ladi.

Mediatorning mustaqilligi va xolisligi prinsipi Mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirishda mediator mustaqildir. Mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirishda mediatorning faoliyatiga biror-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi.

Mediator xolis bo'lishi, mediatsiya tartib-taomilini taraflarning manfaatlarini ko'zlab amalga oshirishi va mediatsiyada ularning teng ishtirokini ta'minlashi, taraflarga o'z majburiyatlarini bajarishi hamda o'zlariga berilgan huquqlarni amalga



oshirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishi kerak. Mediatorning mustaqilligi va xolisligiga to'sqinlik qiladigan holatlar mavjud bo'lgan taqdirda, u mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirishdan voz kechishi kerak [11].

Mediatsiya haqida so'z ketganda eng avvalo xorij mamlakatlari va O'zbekistondagi mediatsiyani farqalash, taqqoslash va solishtirishni tushunishimiz kerak. Solishtirishimiz kerak bo'lgan birinchi davlat bu Singapur, eng katta sabablardan biri bu Singapurda qonun va tizim yaxshi ishlashi aholsini huquqiy onga va huquqiy madaniyati yetarli darajada rivojlanganini aytib o'tishimiz joiz. Mediatsiya instituti Singapurda yuqori darajada rivojlangan va huquqiy tizimning muhim elementiga aylangan. Singapur hukumati mediatsiyani nizolarni hal qilishning samarali, arzon va tezkor usuli sifatida ilgari suradi. 1997-yilda tashkil etilgan Singapur Mediatsiya Markazi (Singapore Mediation Centre, SMC) bu borada yetakchi rolni o'ynaydi. SMC orqali har yili minglab nizolar muvaffaqiyatli hal qilinadi. Mediatsiya Singapurda nafaqat fuqarolik va iqtisodiy nizolarda, balki xalqaro tijorat nizolarida ham keng qo'llaniladi. Singapur hukumati 2017-yilda "Singapore Convention on Mediation" (rasman: United Nations Convention on International Settlement Agreements Resulting from Mediation) ni tashabbus qilib, uni qabul qildirdi. Bu xalqaro konvensiya xalqaro miqyosdagi mediatsiya orqali erishilgan kelishuvlarni tan olish va ijro etishni ta'minlashni ko'zda tutadi. Singapur konvensiyasi bugungi kunda ko'plab davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilingan va u xalqaro savdoda mediatsiyaning rolini mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi [12]. Yuqoridagi manbani tahlil qiladigan bo'lsak darhaqiqat mediatsiya degan so'z jarangalaganida birinchi navbatda Singapur davlati keladi. U yerda mediatsiya shunaqangi darajada rivojlanganki hatto alohida markaz ham tashkil etilgan bu degani ushbu davlatda mediatsiyaga yetarli darajada ishonch bildirgan. Va bu ishoncha shu vaqtgacha o'zni iqlamoqda.

O'zbekiston va Singapur tajribasi o'rtasida bir qancha umumiyliklar bilan bir qatorda farqlar ham mavjud. Umumiy jihatlar shundan iboratki,

1. Har ikkala davlatda ham mediatsiya maxsus qonun orqali tartibga solinadi.



2. Mediatsiya ixtiyoriylik, xolislik, maxfiylik kabi prinsiplar asosida olib boriladi.

3. Mediatsiya institutini keng jamoatchilikka tanitish va malakali mediatorlarni tayyorlashga e'tibor beriladi.

Farqli jihatlar:

1. Singapurda mediatsiya keng qamrovli vaxalqaro savdo nizolarini hal qilish vositasi sifatida ham faol qo'llaniladi.

2. Singapurda mediatsiya bo'yicha markazlashtirilgan, yuqori malakali va raqamlashtirilgan xizmatlar tizimi mavjud, O'zbekistonda esa bu tizim endigina shakllanmoqda.

3. Singapurda sudlar mediatsiyaga yo'naltirish vakolatiga ega va bu keng qo'llanilayotgan bo'lsa, O'zbekistonda bu amaliyot hali keng ommalashmagan. O'zbekiston Singapur tajribasidan quyidagi jihatlarida o'rnak olishi mumkin:

- Mediatsiyaning xalqaro savdo va investitsiya nizolarida qo'llanish doirasini kengaytirish;

- Mediatsiya markazlarining texnologik infratuzilmasini rivojlantirish;

- Mediatorlar malakasini oshirish uchun xalqaro standartlarga mos o'quv dasturlarini ishlab chiqish;

- Mediatsiyaga oid xalqaro konvensiyalarga qo'shilish va ularni milliy qonunchilik bilan uyg'unlashtirish [13]. Yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek Singapur va O'zbekistonni mediatsiya sohasida o'zaro solishtirishimizning sababi Singapurdagi rivojlangan huquqiy madaniyat huquqiy ong va rivojlangan mediatsiya institutini O'zbekistonga ham tadbiq etish hisoblanadi.

Yuridik fanlar doktori professor Esanova Zamira Normurotovna o'z maqolalarida fuqarolik ishlari bo'yicha mediativ keishuvga erishilgan ishlar haqida statistikani keltirib o'tgan ya'ni;

Shu kunga qadar fuqarolik ishlari bo'yicha Respublika sudlari amaliyotida nizolarni hal qilishning kelishuv bitimidan foydalanish amaliyoti qo'llanilgan. Statistika ma'lumotlari tahliliga ko'ra 2014-yilda 4665 ta 2015-yilda 7764 ta



kelishuv bitimi tuzilganligi munosabati bilan sudlarda ish yuritish tugatilgan. Fuqarolik protsessual kodeksiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar ga ko'ra, amaldagi 17-bob "Yarashtirish tartibi-taomillari" deb nomlanib unda kelishuv bitimini yoki mediativ kelishuvni tuzish asoslari va tartibini ko'rsatadi[14].

## **Xulosa**

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak mediatsiya bugungi kunda jamiyatimizda nizolarni hal etishda eng qulay va samarali yo'llardan biri hisoblanadi. Mediatsiya orqali taraflar sudga bormasdan, o'zaro kelishib, muammoni tinch yo'l bilan hal qilish imkoniga ega bo'lishadi. Bu nafaqat vaqt va xarajatni tejaydi balki odamlar orasidagi o'zaro hurmat va ishonchni ham mustahkamlaydi. O'zbekistonda mediatsiya tizimi endi-endi rivojlanib boryapti lekin hali bu sohada qilinadigan ishlar judayam ko'p. Eng asosiysi fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish mediatsiyaning afzalliklarini keng targ'ib qilish kerak deb o'ylayman. Mediatorlarga ham amaliyotda ko'proq imkoniyat yaratilsa, bu soha yanada rivojlanadi. Xorij tajribasi, ayniqsa Singapurdagi mediatsiya tizimi biz uchun yaxshi namuna bo'la oladi. Agar biz ham shu kabi tizimli yondashuvni joriy qilsak sudlar yuklamasi kamayadi fuqarolar orasida adolat va totuvlik yanada mustahkamlanadi. Umuman olganda, mediatsiya jamiyatda tinchlik, o'zaro tushunish va adolatni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Shu sababli, har birimiz bu tizimning rivojlanishiga o'z hissamizni qo'shishimiz kerak deb hisoblayman. Yana bir takliflardan bir bu huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirish maqsadida tumanlar kesimida Adliya vazirligi tizimida yuridik maslahatxonalar tashkil etilishi maqsadga muvofiq deb o'ylayman. Chunki bu yuridik maslahatxonalarda fuqarolarga bepul yuridik yordam ko'rsatilishidan tashqari, har haftada turli seminar va treninglar o'tkaziladi. Ushbu treninglarning ko'pchiligi mediatsiya sohasiga bag'ishlansa fuqarolar bu tizim haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lib unga nisbatan ishonchi oshadi. Yuridik maslahatxonalar tizimli ishlasa, bu jamiyatimizda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirishga katta hissa qo'shadi deb o'ylayman.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1- <https://advice.uz/oz/document/1223>

Mediatsiya: Mediatorlar uchun qo'llanma. O'quv qo'llanma. / Tuzuvchi I.Rustambekov.-T., "Dimal" nashriyoti, 2024-yil 9-bet

Q.Matkarimov "Nizolarni hal etishda mediatsiya institutining o'rni va ahamiyati"

<https://nizolarni-hal-etishda-mediatsiya-institutining-o-rni-va-ahamiyati/viewerm>

<https://advice.uz/oz/document/1223>

[https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda\\_yangi/mediatorlar\\_qanday\\_va\\_qaerda\\_uqi\\_tiladi](https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/mediatorlar_qanday_va_qaerda_uqi_tiladi)

<https://econfservices.com/index.php/5/article/view/2225/2270>

Adliya vazirligi Jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi. (2020, 23-avgust). Mediatsiya nizoni hal etishning oson yo'li. Zamin.uz. <https://zamin.uz/uz/jamiyat/77775-mediatsiya-nizoni-al-jetishning-oshon-jli.html>

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi - LEX.UZ, <https://lex.uz/acts/-3517337>

O'RQ-482-сoн 03.07.2018. Mediatsiya to'g'risida - LEX.UZ, , <https://lex.uz/docs/-3805227>

E.Sarsenbaeva Fuqarolik ishlari bo'yicha nizolarni mediatsiya orqali hal qilish tartibining amaliy samaradorligini oshirish yo'llari <file:///C:/Users/user/Downloads/254-258.pdf>

O'RQ-482-сoн 03.07.2018. Mediatsiya to'g'risida - LEX.UZ, , <https://lex.uz/docs/-3805227>

Boulle, L. –Mediation: Principles, Process, Practice, LexisNexis, London, 2016.

Tursunov A. A. –Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar faoliyatida mediatsiyaning o'rni, TDYU Ilmiy jurnali, 2023.

Esanova Zamira Normuratovna UO'K:347.746.42(575.1) <https://nizolarni-hal-qilishda-mediatsiya-institutini-qo-llashning-ustuvor-jihatleri-milliy-va-xorijiy-tajriba/viewer>